




Antuan de Sent-  
Ekzyuperi

---

# Kichkina shahzoda



YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2014

**UO‘K: 821. 112. 5 -3**

**KBK: 84(4Fra)**

**E-36**

**Antuan de Sent-Ekzyuperi.**

Kichkina shahzoda; Istehkom; Hikmatlar / So‘zboshi muallifi va mas‘ul muharrir professor A.X.Saidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 136 bet.

ISBN 978-9943-27-361-0

**Antuan de Sent-Ekzyuperi** – XX asr fransuz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, mohir uchuvchi, shoir va yozuvchi, yosh-u qarining sevimli asari «Kichkina shahzoda»ning muallifi.

«Uchuvchi» (1926), «Janubga xat» (1929), «Tungi parvoz» (1931), «Bashar sayyorasi» (1939), «Harbiy uchuvchi» (1942), «Istehkom» (1948), «Yoshlik maktublari» (1953) kabi asarlar Antuan de Sent-Ekzyuperining qalamiga mansubdir.

Antuan de Sent-Ekzyuperining asarlari dunyoning 200 tiliga tarjima qilingan. Jumladan, uning «Kichkina shahzoda» asari Xayriddin Sultonov tomonidan va «Istehkom» qissasidan parcha Abdug‘opir Qosimov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Ushbu kitob Antuan de Sent-Ekzyuperining o‘zbek tilida chop etilayotgan yangi to‘plamidir.

Asar keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**Tarjimonlar:**

Xayriddin SULTONOV, Abdug‘opir QOSIMOV

**So‘zboshi muallifi va mas‘ul muharrir professor**

Akmal SAIDOV

ISBN 978-9943-27-233-0

© Antuan de Sent-Ekzyuperi. «Kichkina shahzoda»; «Istehkom»; «Hikmatlar». «Yangi asr avlodi», 2014-yil.

*«Men uchun uchish va yozish bir narsa.  
Muhimi – harakat qilish,  
muhimi – o‘zligingni anglash».*  
**Antuan de Sent-Ekzyuperi**

## **ANTUAN DE SENT-EKZYUPERI – O‘LIMLARNI DOG‘DA QOLDIRGAN UCHUVCHI BA FAYLASUF ADIB**

Mashhur fransuz yozuvchisi, shoir hamda mohir harbiy uchuvchi Antuan Mari Jan-Batist Roje de Sent-Ekzyuperi (Antoine Marie Jean-Baptiste Roger de Saint-Exupéry) 1900-yilning 29-iyunida Fransiyaning Lion shahriéda dunyoga kelgan.

Ekzyuperilar oilasida besh farzand bo‘lib, Antuan oilada uchinchi edi. Antuanning otasi graf bo‘lgan, biroq sug‘urta noziri sifatida faoliyat olib borgan. Antuan to‘rt yoshga to‘lganida, uning otasi bevaqt olamdan o‘tganligi bois, Antuanning tarbiyasi bilan ham do‘sti, ham uning barcha ishlaridagi ilhomlantiruvchi kishi – onasi Mari Buaye de Fonkolomb (Marie Boyer de Fonscolombe) shug‘ullangan. Antuanning onasiga yozgan ayrim xatlari (Antuan bu xatlarni butun umri davomida yozgan) badiiy miniaturaning durdonasidir. Antuanda xalq ertaklariga nisbatan muhabbat, musiqa, rassomchilik, adabiyotga qiziqishning erta paydo bo‘lganligi onasining xizmatidir.

Kichik Antuan yoshlik chog‘larida juda sho‘x, o‘ta qiziquvchan bo‘lib, o‘choqdagi yonib turgan olovga qarab soatlab xayol surishni sevgan. Shu bilan birga, u tabiatan quvnoq, ko‘ngli ochiq hamda ko‘plab qobiliyatlarning sohibi bo‘lgan: she‘rlar yozgan, rasm chizgan, skripka chalgan, bitmas-tuganmas o‘ylar

va fantaziyaga boy boʻlgan. Biroq uning eng katta qiziqishi texnika boʻlgan, kelayotgan texnika davrining tezligini sezib tugʻilgandek goʻyo. Antuan yoshligida tunukadan telefon yasagan, 12 yoshida esa samolyot-velosiped ixtiro qilgan va unda olomonning «Antuan de Sent-Ekzyuperiga shon-sharaflar boʻlsin!» degan hayratomuz olqishlari ostida havoga koʻtarila olishiga ishongan.

Antuan birinchi marta 1912-yilda Amberedagi (Ambérieu-en-Bugey) aviatsiya maydonida samolyotda havoga koʻtarilgan. Oʻsha paytda samolyotni mashhur uchuvchi Gabriel Vroblevski-Salvets (Gabriel Wroblewski-Salvez) boshqargan.

Antuan 1908-yilda Liondagi Muqaddas Varfolomey maktabiga birinchi sinfga qabul qilingan, keyin 1909-yilda oilasi bilan birga Le-Man shahriga koʻchishgan. Antuan akasi Fransua bilan birga 1914-yilgacha Mansedagi Notr-Dam de Sent-Krua iyezuitlar maktabida tahsil olgan. Taʼlim olish jarayoni bilan birga qadimiy jangchi mashinalar qanday qilib ishlashini tushunish uchun **Yuliy Sezarning «Gall urushlari»** nomli lotin tilidagi kitobini zavq bilan oʻqigan. Soʻngra **Friburgdagi<sup>1</sup> maristlar** kollejida **«Ekol Naval»ga<sup>2</sup>** (Parij Sen-Lui Harbiy-dengiz litseyida tayyorlov kurslarini oʻtagan) kirishga tayyorlangan. Biroq tanlovdan oʻta olmagan.

1914-yili Birinchi jahon urushi boshlangan, Antuanning onasi tibbiyot hamshirasi boʻlib ishga kirganidan soʻng, oʻgʻillarini Shveysariyaga yuborgan.

---

<sup>1</sup> Friburg (Fribourg) – Shveysariyadagi shahar va kanton nomlanishi.

<sup>2</sup> Ekol Naval (Ecole navale) – Fransuz milliy harbiy dengiz ofitserlarini tayyorlovchi oliy maktab.

1917-yilda kelib Antuan Fransiyaga qaytib kelgan va oʻrta maʼlumotini Parijda nihoyasiga yetkazgan. 1919-yilda Nafis sanʼat Akademiyasining (École nationale supérieure des beaux-arts) arxitektura boʻlimiga erkin tinglovchi sifatida yozilgan.

1921-yilda Fransiyaga armiyasiga chaqirilishi Antuan taqdirida keskin burilish yasagan. Oliy oʻquv muassasasidagi armiyaga borish muddatini keyinga qoldirganiga qaramay, Antuan Strasburgdagi ikkinchi qiruvchi samolyotlar polkiga yozilgan. Uni dastlab samolyotlarni taʼmirlaydigan ishchi guruhi-ga qoʻyishgan, biroq u tez orada fuqarolik aviatsiyasi uchuvchiligiga imtihon topshirib, imtihonlardan muvaffaqiyatli oʻtgan. Uni Marokashga yuborishgan, Antuan u erda harbiy uchuvchi huquqini olgan. Keyin esa bilimlarini mukammallashtirish uchun **Istr**<sup>1</sup> shahriga yuborilgan. 1922-yili **Avor**<sup>2</sup> shahrida zaxiradagi ofitserlar oʻquv kursini tamomlagan hamda kichik leytenant harbiy unvonini olgan. Antuan oktabr oyida Parij yaqinidagi Burj shahrida joylashgan 34-aviatsiya polkiga ishga oʻtish toʻgʻrisida topshiriq olgan. 1923-yilning yanvar oyida Antuan birinchi marta aviahalokatga uchragan. Bu aviahalokat natijasida uning bosh miya suyagi jarohatlangan. Mart oyida Antuanni harbiy xizmatga layoqatini aniqlash uchun komissiyadan oʻtkazishgan. Soʻng Ekzyuperi Parijga koʻchib ketib, u yerda yozuvchilikka shoʻngʻib ketgan. Ammo dastlab sohaning bu turi

---

<sup>1</sup> Istr (Istres) – Fransiyaning janubiy qismida joylashgan shahar, Birinchi jahon urushi davrida eng muhim uchuvchi tayyorlash maktablaridan biri joylashgan.

<sup>2</sup> Avor (Avord) – Fransiyaning markazida joylashgan shahar, Birinchi jahon urushi davrida eng muhim uchuvchi tayyorlash maktablaridan biri joylashgan.

bilan shugʻullanib, unchalik zafar quchmagani bois, turli ishlarni bajarishga majbur boʻlgan: kitob doʻkonida sotuvchi boʻlgan, avtomobil oldi-sotdisi bilan ham shugʻullangan.

1926-yilga kelibgina **«Aerpostal»**<sup>1</sup> kompaniyasi-ning Afrikaning shimoliy qirgʻoqlariga pochta yetkazuvchi uchuvchisi boʻlib ishga kirgan. Oʻsha yilning bahor oylaridan boshlab Tuluza – Kasablanka, keyinchalik Kasablanka – Dakar yoʻnalishlarida pochta tashigan.

Kasablankada boʻysundirilmagan qabilalarning yonida joylashgan bir istehkom boʻlib, hatto bu yerda qisqagina sayr qilish ham oʻlim yoki qullikka olib kelgan. Bundan tashqari, samolyotlar halokatga tez-tez uchrab turgan va choʻlga qoʻnishga majbur boʻlishgan. Bu borada Ekzyuperi singlisining eriga quyidagicha xat yozgan: **«Bu juda qiziqarli sport. Oʻtgan yili bizning toʻrtta uchuvchimizdan ikkitasini oʻldirishgan, minglab kilometr masofada meni kaklikdek otishlari mumkin».**

Ekzyuperi onasiga yoʻllagan xatida esa manzarani biroz boshqacha tasvirlagan: **«Qoʻnishga majbur boʻlganim uchun Senegal habashlarinikida tunni oʻtkazdim. Ularni murabbo bilan mehmon qilsam, lol qolishdi: ular yevropaliklarni ham, murabboni ham koʻrishmagan ekan. Boʻyraga choʻzilib yotganimda esa qishloqning hammasi mening oldimga tashrif buyurishdi. Men oʻzimning chaylamda oʻttiztadan ortiq odam qabul qildim... Ular meni boshdan-oyoq koʻzdan kechirishdi...»**

---

<sup>1</sup> Aerpostal (Aeropostale) – 1918-yilda tashkil etilgan Fransuz havo yoʻllari kompaniyasi, 1933 yildan beri “Eyr Frans” (Air France) nomi bilan ataladi.

Antuandagi mardonavor qiziqqonlikkina mavrlar<sup>1</sup> sardori bilan do'stlik aloqalarini o'rnatishga imkon bergan. Ularga o'z qo'rg'onida choyxo'rlik uyushtirib bergan, yana ularning uyiga javoban o'zi ham tashrif buyurgan. Mahalliy aholidan arab tilini o'rgangan.

Bir yarim yillardan keyin Ekzyuperi onasiga quyidagi mazmunda xat bitgan: **«Men Sahroyi Kabirni sevaman, cho'lga qo'nishga to'g'ri kelib qolganda esa meni o'rab turgan sho'r ko'lda aks etuvchi qumtepalarni ko'rib zavqlanaman».**

1926-yilning 19-oktabrida Ekzyuperi Sahroyi Kabirning eng chekkasida bo'lgan Bilya-Bens shahridagi Kal-Jubi oraliq stansiyasiga boshliq etib tayinlangan. Bu yerda u o'zining **«Janubga xat»** («Courrier sud», 1929) nomli ilk asarini yozgan.

**«Janubga xat»** Ekzyuperining birinchi romani hisoblanib, yetarli darajada mukammal deb bo'lmaydi. Xususan, asar mazmunidagi muhabbat chizig'i adibning ijodiyoti uchun jonsizroq tuyuladi. Umuman olganda, kitobning mazmuniy tuzilishi muallifning xavotirga soluvchi g'oyalar va muammolarni erkin ifodalashi uchun to'sqinlik qilgan. Shunga qaramasdan, asarda adib do'sti Jak Bernis bilan bog'lab turuvchi insoniy munosabatlari haqida fikrlarini bildirgan, inson o'zining faoliyati bilan dunyoga keltiradigan tartiblar kabi bir qator muhim mavzularni ko'targan. Hikoyaning jiddiy va keskin (ba'zan biroz noaniq) uslubi adibning falsafiy barkamolligidan darak beradi.

1929-yilda Brestdagi dengiz flotining oliy aviatsiya kurslariga kirgan. Tez orada «Gallimar» nashriyoti Ekzyuperining «Janubga xat» nomli romanini chop

---

<sup>1</sup> Mavrlar – qadimgi va o'rta asrlarda Mavritaniya, hozir Mavritaniya Islom Respublikasi deb atalgan, shimoli-g'arbiy Afrikada joylashgan mamlakat xalqi.

etgan, roman muallifi esa Janubiy Amerikadagi «Aeropostal» kompaniyasining filiali bo'lmish «Aeroposta – Argentina»ga texnik direktor sifatida jo'nab ketgan. Sent-Ekzyuperi 1930-yilda fuqarolik aviatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlari uchun Faxriy legion ordeni bilan taqdirlangan.

1930-yil iyun oyida Antuanning o'zi And tog'larini uchib o'tish chog'ida halokatga uchragan uchuvchi do'sti Giyomni qidirish jarayonlarida shaxsan ishtirok etgan. O'sha yilning o'zidayoq Antuan «**Tungi parvoz**» («Vol de nuit», 1931) asarini yozgan hamda bo'lg'usi turmush o'rtog'i Konsuelo bilan tanishgan.

«**Tungi parvoz**» asari Ekzyuperining Janubiy Amerikada o'tkazgan hayoti davrida yozilgan. Chili, Paragvay, Patagoniyadan yo'llangan maktublar o'z vaqtida Buenos-Ayres shahriga yetib kelishi uchun uchuvchilar kechalari bepoyon tog' tizmalari ustidan parvoz qilishlariga to'g'ri kelgan. Mabodo dovul yoki to'fonga duch kelsalar, hammasi tamom bo'lgan. Biroq ularning boshlig'i River bu kabi tavakkalga qarshi chiqish lozimligini yaxshi bilgan. River bilan birgalikda nozirlardan biri Robino va uning turmush o'rtog'i Faben parvozi kuzatiladi. Ulardan biri, Fabenning samolyoti yo'nalishdan chiqib ketadi. Uning samolyotida yarim soatga yetadigan yoqilg'i qolgan, xolos. Umid yo'q. Va shu zahotiyoyq u osmon-u falakka qarab yo'l olgan. U yerda hech bir tirik jon bo'lmagan. Afsonaviy boyluk egasi Faben halok bo'lgan. Fabenni yaxshi ko'rsa-da, shunga qaramasdan River qattiq sovuq alam bilan Yevropaga xat tashish bilan shug'ullanavergan.

1930-yilning aprelida Ekzyuperi Parij shahriga qaytgan hamda 3 oylik mehnat ta'tili olgan va **Konsuelo Sunsin** (Consuelo Sunsîn, 1901–1979) bilan nikohdan o'tgan. Biroq ular alohida yashashgan. 1931-yilning 13-martida «Aeropostal» kompani-



yasi kasodga uchragan. Shundan so'ng, Ekzyuperi Fransiya – Janubiy Amerika yo'nalishidagi «Kasablanka – Port-Etenn – Dakar»ga pochta tarqatuvchi uchuvchi bo'lib ishga qaytgan. 1931-yilning oktabrida uning «Tungi parvoz» asari chop etilgan va buning uchun Ekzyuperi «**Femina**»<sup>1</sup> adabiy mukofotiga sazovor bo'lgan. U yana ta'til olib, Parijga qaytgan.

1932-yilning fevralida «Marsel – Aljir» yo'nalishi bo'ylab xizmat qiluvchi «**Latekoera**» aviakompaniyasining gidroplaniga 2-uchuvchi bo'lib ishga kirgan. «Aeropostal» kompaniyasining sobiq uchuvchisi **Dide Dora** (Didier Daurat) tez orada uning sinovchi-uchuvchi bo'lib ishga kirishiga yordamlashgan va Ekzyuperi Sen-Rafael ko'rfazida yangi gidrosamolyotni sinovdan o'tkazish jarayonida halok bo'lishiga bir bahya qolgan. Gidrosamolyot ag'darilib ketgan, Ekzyuperi cho'kayotgan gidrosamolyot kabinasidan chiqishga bazo'r ulgurib qolgan.

1934-yilda «**Eyr Frans**» (sobiq «Aeropostal») kompaniyasiga ishga kirgan. Kompaniyaning vakili sifatida Afrika, Hindixitoy va boshqa mamlakatlar bo'ylab sayohatga chiqqan. 1935-yilning aprelida «**Pari-Suar**» gazetasining muxbiri sifatida sobiq SSSRga tashrif buyurgan. U o'zining bu tashrifi jarayonida ko'rgan-kechirganlarini beshta ocherkda<sup>2</sup> bayon qilgan. Ekzyuperining «**Sovet hukumati oldida jinoyat va jazo**» nomli ocherki g'arb mamlakatlari yozuvchilarining Sovet hukumati haqida

---

<sup>1</sup> Femina (Femina) – 1904-yilda ta'sis etilgan fransuz adabiy mukofoti.

<sup>2</sup> Ocherk – umumiy tarzda yozilgan tasviriy-tavsifiy yoki ilmiy asar.

yozgan ilk asari hisoblangan. 1935-yilning 3-mayida Ekzyuperi **M.A.Bulgakov**<sup>1</sup> bilan uchrashgan.

Tez orada Ekzyuperi **S.630 «Simun»** rusumli o'z shaxsiy samolyotiga ega bo'lgan. 1935-yilning 29-dekabrida Parij – Saygonni uchib o'tish bo'yicha rekord qo'yimoqchi bo'lganida Liviyaning suvsiz cho'l-u biyobonida halokatga uchragan. Biroq bu safar ham o'limga chap berib, tirik qolgan. 1936 yil 1 yanvarda Ekzyuperi mexanik Prevo bilan birga tashnalikdan qiynalib o'layotganlarida ko'chmanchi badaviy arablar tomonidan qutqarib qolingan.

1936-yilning avgustida **«Entransijan»**<sup>2</sup> gazetasi bilan tuzgan shartnomasiga binoan, fuqarolar urushi bo'layotgan Ispaniyaga jo'nab ketgan va Ekzyuperi u yerdan gazetalarga bir qator voqea tafsilotlari yoritilgan maqolalar yuborgan. Jumladan, adib o'zining **«Istehkom»** nomli asarini ham aynan mana shu yili yozishni boshlagan. Biroq bu asar muallifning o'limidan so'ng 1948-yilda chop etilgan.

Ekzyuperining **«Istehkom»** asarida donishmandlik va tajriba g'oyasi ilgari surilgan. Ko'chmanchi obrazi orqali inson qanday qilib dunyoni anglashini tasvirlab bergan. Agar kishi o'zining istehkomini barpo etmasa, tinchlik tushunchasini bilmasligi va borliqni angla-shi murakkab ekanligini o'rgatadi. Inson shaxsan o'zining qonida, makonida va o'zi sevadigan yurtda ehtiyoj hamda zaruriyat mazmunini his etadi. Istehkom, avvalo, insonning qalbida qad ko'taradi. U

---

<sup>1</sup> Bulgakov, Mixail Afanasyevich (1891–1940) – rus yozuvchisi, dramaturg, teatr rejissori va aktyori, mashhur “Usta va Margarita” romani muallifi.

<sup>2</sup> “Entransijan” (“Intransigeant”) – 1880-yilda asos solingan fransuz davriy nashri, 1940-yilda mazkur nashr o'z faoliyatini tugatgan.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/uz/asar/2167> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/2167> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию  
можно найти на сайте  
<https://kitobxon.com/ru/asar/2167>